



# OILALARDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA BU BORADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Andijon Davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya,

ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi:

**Sodiqova Muqaddasxon Abdumalikovna**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Respublikamizda yosh va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Chunki barkamol avlod Vatanimiz kelajagi va naslimiz davomchisi hisoblanadi. Ularni zamonaviy, komil insonlar etib tarbiyalash, ular ongiga milliy–madaniy, ma’naviy qadriyatlarimizni singdirish, qadimiy va boy tariximiz bilan qurollantirish, aqlan va ma’nan barkamol etib tarbiyalash bugungi kunimizning dolzARB masalasidir. Bu masalaning yechimini torishda Fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organi jamiyat ichida kichik jamiyat nomini olgan - oilaning o’ziga xos o’rni bor.

**Kalit so’zlar:** oila, huquq, madaniyat, marifat, rivojlanish.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yilning 27 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori bilan konsepsiyaning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyaning amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, unda oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, qiyin hayotiy sharoitga ega oilalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida olish maqsadida «Oila» markazining yagona idoralararo axborot bazasini yaratish ko‘zda tutilgan.<sup>1</sup>

Shuningdek, oilaviy biznesni, oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini yanada rivojlanterish, Oila kodeksining oilaviy huquqiy munosabatlarning javobgarlik mezonlarini

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori 2018 yilning 27 iyun



aniqlash, alimentlarni belgilash, ajrashish vaqtida ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarini yanada takomillashtirish, ko‘p bolali va muhtoj oilalarga imtiyozli kreditlar (ipoteka, iste’mol va boshqalar) berish va yer maydonlarini taqdim etish va boshqalar ham nazardan chetda qolmagan.

Konsepsiya da nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tish tizimini takomillashtirish, erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning, tug‘ma nuqsonlar bilan bolalar tug‘ilishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish masalasiga ham ahamiyat berilgan.

Hujjatda ijtimoiy himoyaga ham e’tibor qaratilgan bo‘lib, voyaga yetmagan yoki nogironligi bo‘lgan farzandlarni tarbiyalayotgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalarga yer uchastkalaridan samarali foydalanishida ko‘maklashish, ota-onalar uchun nogironligi bo‘lgan farzandlarni to‘g‘ri parvarishlash va tarbiyalash bo‘yicha metodik hamda amaliy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, patronaj va ijtimoiy xizmatlar yordamida ularning ko‘nikmalarini oshirish va boshqalar ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan ota-onsa va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og‘ir turmush sharoitlarini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish ko‘zda tutilgan.<sup>2</sup> Konsepsiya va «Yo‘l xaritasi»ni amalga oshirish jarayonining muvofiqlashtirilishi va monitoringi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi zimmasiga yuklatildi. 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda O‘zbekistonda Xalqaro oila kuni nishonlanadi. Hukumat farmoyishining tegishli loyihasi joriy yil 1 sentyabrgacha Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

O‘zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu boradagi vazifalari haqida gapirib: "Eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma’naviy sog’lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi", -deb ta’kidlaydi.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori bilan konsepsiya 2018 yilning 27 iyun



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimidagi ma`ruzasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni masalasiga ham alohida to`xtalib – “Biz huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzliksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta’lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko`nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor. Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to`liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog`i lozim. Har bir soha va yo`nalish, ta’limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak. Bunda, avvalambor, Konstitutsiyani o`rganishga jiddiy yondashish lozim. Umumta’lim maktablari uchun “Konstitutsiya alifbosi”, “Konstitutsiya saboqlari”, “Konstitutsiya asoslari” kabi darsliklarni yaratish zarur deb hisoblayman”- deya takidlagan edilar.<sup>3</sup>

O`zbekiston “Mustaqillik” deb atalmish oliy ne’matni qo’lga kiritgan kundan e’tiboran Respublikada demokratik qadryatlarga asoslangan huquqiy davlatni barpo etishga kirishdi. Buning uchun avvalo, sovet to’zumi mafkurasiga g’arq bo’lgan kishilar ongi, dunyoqarashini tubdan o’zgartirish zarur, deb xisoblandi. Chunki, sobiq sho’rolar to’zimi davrida shaxs manfaatidan ustun qo’yilgan davlat manfaatiga xizmat qiluvchi huquq tizimi, qonunlar majmuasi kishilar ongiga o’ziga xos ta’sir etgan edi. Mavjud to’zum uchun komunistik mafkuraga xizmat qiluvchi huquq talablarini itoatkorona bajaruvchi fuqorolarning mavjudligi zarur bo’lgan. Shuning uchun huquqiy madaniyat, jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari e’tibordan chetda qolgan. Mustaqillik yillarda shaxs huquqiy ongi, xukukiy madaniyatini, jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish O’zbekistonda yangi demokratik davlat, fuqorolik jamiyatini barpo etishning bosh mezoniga aylandi. Mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etilmoqda. Demokratik huquqiy davlatda jamiyat va shaxsning yuksak huquqiy madaniyati muxim ko’rsatkich xisoblanadi. Huquqiy madaniyat umumbashariy qadriyatlarga, ijtimoiy taraqqiyot yutuqlariga, xalqaro

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimida so’zlagan nutqi. 2019-yil 8-dekabr



huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari hamda me'yorlariga asoslanib o'z qoidalarini yuzaga chiqaradi.<sup>4</sup>

Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I. A. Karimovning bevosita sa'yи harakatlari natijasida o'ziga xos nazariy bilimlar majmuasi yuzaga keldi. Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustivor masalalari darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgust 166-1 son qarori bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilindi. Mazkur milliy dasturda fuqoro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish fuqorolarning huquqiy ta'limi va huquqiy tarbiyasini takomillashtirish, davlat organlari, xodimlari, mansabdor shaxslar va fuqorolarning huquqiy savodxonligini oshirish, yuridik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadbiq etish masalalariga oydinlik kiritildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"<sup>5</sup>gi farmoni mazmun-mohiyatiga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanishiga, adolat qaror topishiga, inson manfaatlari ulug'lanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur hujjatda "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lislari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etibbelgilandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. «O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash

<sup>4</sup> Mualliflar jamoasi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2001. B.

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidag"gi Farmoni "Xalq so'zi", 2019 yil 10 yanvar



konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 2018 yilning 27 iyun

2. Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan konsepsiya 2018 yilning 27 iyun
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlagan nutqi. 2019-yil 8-dekabr
4. Mualliflar jamoasi. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001. B.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidag”gi Farmoni “Xalq so‘zi”, 2019 yil 10 yanvar.

